

**ONA TILI TA'LIMIDA BOG'LANISHLI NUTQ TUZISHDA
INFOGRAFIKADAN FOYDALANISH**

Ismoilova Ismigul Muzaffar qizi

Qo'qon DPI talabasi

Ilmiy rahbar: Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna

Qo'qon DPI dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishda infografikaning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: infografika, bog'lanishli nutq, statistik infografika, dinamik infografika, analitik infografika.

Infografika (lotincha informatio - taqdim etish, tushuntirish, taqdim etish; va boshqa yunoncha γραφικός - yozma, γράφω - yozish) - axborot va ma'lumotlarni taqdim etishning grafik usuli bo'lib, uning maqsadi murakkab ma'lumotlarni aniq tasavvur qilishdir. Grafik va kommunikatsiya dizayni shakllaridan biri. Uning qo'llanilish doirasi juda katta: geografiya, jurnalistika, ta'lim, statistika, texnik matnlar. Infografika nafaqat katta hajmdagi ma'lumotlarni tartibga solishi, balki obyektlar va faktlarning vaqt va makondagi o'zaro bog'liqligini aniq ko'rsatishi, shuningdek, axborot pretsedentlarining rivojlanish tendensiyalarini namoyish qilishi mumkin.

Boshqa sohalar kabi ta'lim tizimida ham eng so'nggi tendensiyalardan biri, bu axborotni grafik ko'rinishida taqdim etish, ya'ni infografikadir. "Infografika, bu – axborotni grafik shakldagi tasviri, bog'lanishlar, raqamli ma'lumotlar va bilimlarga asoslangan kommunikativ dizayn sohasidir". Axborotni grafik shaklda uzatish insonlar diqqatini jalgan etish, muayyan ma'lumotni tez va oson yetkazib berish xususiyatiga ega. Grafik ko'rinishidagi axborot inson ongiga odatiy yozma yoki og'zaki ma'lumotga nisbatan bir necha barobar tez yetib borishi tadqiqotlarda asoslab berilgan. "Axborotni o'rtacha qabul qiladigan insonlar, ayniqsa, o'quvchilar ko'p miqdordagi matnli ma'lumotlarni eslab qolish imkoniyatiga ega emas, ma'lumotlarning yarmidan ko'p qismi o'zlashtirilmaydi va bunga sabab aslida o'quvchida emas, balki axborotni yetkazish usulidir. Shu bois, ta'lim samaradorligi uchun, o'quv materialining

ko'rgazmaliligi hamda informatsionligini oshirish maqsadida infografikadan unumli foydalanish zarur” , deb ta'kidlaydi A. Lekomsev. Infografikaning mana shu samaradorlik xususiyati uni tijoriy axborot – reklama uzatishning eng samarali usuliga aylantirdi. Bugungi kunda infografikani qo'llash ko'lami ancha kengaygan, jamiyatdagi hech bir sohani, jumladan ta'limni ham grafik axborotlarsiz tasavvur etish qiyin.

Infografikani deyarli barcha fanlarni o'qitishda qo'llash mumkin. Masalan, xorijiy tillarni o'qitishda infografikadan foydalanib kelinmoqda va bugun u zaruratga ulgurdi. Ta'lim sifatini oshirish, ta'limdagi izchilligni ta'minlash hozirgi kundagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Bunda asosiy masala deb ilmning asosi bo'lmish axborotlarni yetkazish usulini qo'yish mumkin. Axborotlarni o'quvchiga taqdim etish usullari xilma xil bo'lishi bilan bir qatorda, muammoli hamdir. Infografikani esa ushbu savolga “berilgan” javoblardan biri deyishimiz mumkin. Chunki kundalik axborot almashinuvimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan infografikalar kreariv yondashuv ruhida tayyorlanadi va oddiy matn protsessorida tayyorlangan axborotdan tubdan ajralib turadi.

Infografika – murakkab ma'lumotlarni tez va aniq tarzda tushuntirishda axborot, ma'lumot va bilimlarni grafik shaklda taqdim etish usuli.

Infografika xususiyatlari:

- berilgan ma'lumotlar bilan bog'liq grafik obyektlar yoki taqdim etilgan ma'lumotlarning o'zgartirish yo'nalishlarining grafik ifodasi;
- foydali axborotning ko'pligi;
- taqdimotlarning rang-barangligi
- mavzuni aniq va mazmunli taqdim etish

Ma'lumotlarni taqdim etish xususiyatiga qarab infografika bir necha toifalarga ajratiladi.

Infografika turlari:

- rasmlardagi raqamlar: eng ko'p ishlataladigan toifaga kiradi, raqamli ma'lumotlar ularning tez o'zlashtirilishini ta'minlaydi;
- kengaytirilgan ro'yxat: statistik ma'lumotlar, vaqt chizig'i, oddiy faktlar to'plamining ko'rgazmali ko'rinishda aks ettirilishi;
- jarayon va istiqbol: murakkab jarayonlarni tasavvur qilish va ba'zi bir istiqbollarni taqdim etishga xizmat qiladi .

Ko'rsatish usuliga ko'ra infografika quyidagi turlarga bo'linadi:

- statistik infografika – animatsiya elementlari bo'lmagan yakka tasvir;
- dinamik infografika – animatsiya elementlari bo'lgan infografika, dinamik infografikaning kichik qismi – videoinfografika, animatsion tasvirlar, taqdimotlar;
- interaktiv infografika – infografikaning bu turidan foydalanuvchilar tasvirlangan ma'lumotlarni boshqara oladilar.

Manba turiga ko'ra, infografika uch turga bo'linadi:

- analitik (tahliliy) infografika – analitik materiallar bilan tayyorlangan grafika. Iqtisodiy infografikada keng qo'llaniladi. Tahlil iqtisodiy ko'rsatgichlar va tadqiqot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi;
- yangiliklar infografikasi - aniq biror yangilik asosida tezkor tayyorlangan infografika;
- qayta ishlab chiqilgan infografika
- biror-bir hodisa asosidagi ma'lumotlar, voqealar dinamikasini xronologik tartibda qayta yaratadi.

O'quv jarayonida infografikaning quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

- yo'riqnama;
- eslatma;
- plakat;
- qo'llanma;
- statistika.

Infografikaning muvaffaqiyat amaliy dizaynerlar tomonidan ko'rsatib berilgan, bular:

- ❖ o'z vaqtida qo'llanishi;
- ❖ e'tiborni jalg qilish, mavzuning aniqligi;
- ❖ ravon, chiroqli, samarali dizaynga ega bo'lishi;
- ❖ tarqatishning qulayligi;
- ❖ foydalanuvchilar maqsadini hisobga olish;
- ❖ ma'lumotlarni raqamli faktlar orqali yetkazish;
- ❖ ichki yaxlitlik;
- ❖ jo'shqin ranglar;
- ❖ sifatli diagramma;

- ❖ o'lchamni tanlash;
- ❖ hikoyani yaratish;
- ❖ qiziqarli faktlarni tanlash;
- ❖ ko'rgazmalilik;
- ❖ soddalashtirish;
- ❖ vaqt chizig'ini qo'llash;
- ❖ maqsad va mohiyatni aniqlash;
- ❖ manbaning ishonchliliga e'tibor berish.

Ta'lim jarayonida infografika dars mavzusidagi ko'rgazmaning tayanchi hisoblanadi, uning mavzu o'zlashtirilishidagi o'rni va imkoniyatlari beqiyos.

Kaliforniya fanlar akademiyasining mutaxassislari o'qituvchilar uchun "Sinfda infografika: ilmiy axborot jarayoniga jalg etish uchun ma'lumotlar vizualizatsiyasi" qo'llanmasini yaratdilar. Ushbu amaliy qo'llanmada to'rtta mashhur ta'lim strategiyasi ta'riflangan, bular: infografika interpretatsiyasi, ma'lumotlarni vizuallashtirish, tanqidiy tahlil va o'quvchilar tomonidan infografikani yaratish.

Infografika interpretatsiyasi (talqini) – boshqalar tomonidan yaratilgan grafikadan foydalanish. Bunda o'rganilayotgan mavzuga oid kerakli vizual materiallarni turli manbalardan topish mumkinligi, mavzu bilan bevosta bog'liq bo'lishi shart emasligi. Infografikani tanlashda ko'ngil ochar elementlarga emas, balki o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzu tarixini o'z ichiga olishiga e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumotlarni vizuallashtirish – o'quvchilarning faktlarni tahlil qilishi va saralashi uchun turli xildagi grafikalar, diagrammalar, jadvallar, taqqoslashlar, ramz va belgilarni qanday qo'llashni tushunishi. Infografikani tanqidiy tahlil qilishda o'quvchilarga grafik ma'lumotni yaxshi yoki yomon tomonlari haqida fikrlashlarini taklif qilish, bunday holda taqdim etilgan ish sifatini baholash uchun mezonlar yoki ballar ro'yxatini berish mumkin. Ko'pgina misollar keltirish, solishtirish, bir-birini farqlash maqsadga muvofiqdir. Infografikani yaratish – o'quvchilar tomonidan o'quv infografikasi ishlab chiqilishi yakuniy bosqich hisoblanadi, chunki bu paytga kelib, ular ma'lumotlarni qanday talqin qilish, qaysi turdag'i tasvirlar muayyan ma'lumotga mos kelishi, ijobjiy va salbiy jihatlarini farqlash, ya'ni ushbu turdag'i ma'lumotni namoyish etishning ideal qiyofasini yaratish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ma'lumotlarni to'plash va uni infografika shaklida topshirish uchun mavzuni bering. Bu ish avvalgi bosqichlardagi

harakatlaringizni oqlashi va mehnatingiz samarsi ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Mavzuga oid tayyorlangan grafik materiallar orqali o'quvchilarni qulay muhitga olib kirish mumkin. Faydalani layotgan materialarning ko'pgina qismi ancha eskirgan va zerikarli. Ularga noodatiy topshiriqlar bering va o'zlari mavzu asosida infografika yaratishsin, katta miqdordagi qiyin va chalkash ma'lumotlar ustida ishslashsin. Ma'lumotlarni o'rganish chog'ida ular qanday ramzlar, rasmlar, sxema va yozuvlarni infografikaga kiritish lozimligini o'zlari hal qilishsin. Infografika yaratish jarayonida o'quvchilarning mavzu yuzasidan fikrlash, axborotni qayta ishlash, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalash qobiliyatları oshib boradi.

Kanadalik olimlar tomonidan olib borilgan taqdidotga ko'ra, infografika topshiriqlarini o'qituvchining qo'shimcha yordamsiz bajarilishi talabalarning fikrlash ko'nikmalarini va ijodkorligini oshiradi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashni o'rganish, infografikani ishlab chiqish uchun mavjud xizmatlardan foydalanishni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantiradigan mashq hisoblanadi. Infografikalar tayyorlash axborot mazmunini tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tinglovchilarning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Bularning barchasi kasbiy muloqot bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarda malakasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akthar Parveen & Naushad Husain. "INFOGRAPHICS AS A PROMISING TOOL FOR TEACHING AND LEARNING". JETIR August 2021, Volume 8, Issue 8
2. Alford.K. (2019). The Rise of Infographics: Why Teachers and Teacher Educators Should Take Heed. Teaching/Writing: The Journal of Writing Teacher Education, 7(1), 7.

Internet resurslari:

3. <https://scholar.google.com/citations?user=Kd2Pv-oAAAAJ&hl=ru>
4. <https://infogram.com/page/infographic>
5. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/infographic>
6. <http://sjii.indexedresearch.org>